# BOLALIKDA KECHIRILGAN PSIXOLOGIK JAROHATLAR VA O‘SMIRLIK DAVRIDA IDENTIKLIK SHAKLLANISHI: E.ERIKSON VA J.MARSIA NAZARIYALARI NUQTAYI NAZARIDAN

Xudayberganova Roziya Nurniyazovna
*Abu Rayhon Beruniy nomidagi*
*Urganch davlat universiteti tayanch doktoranti,*
*Urganch RANCH texnologiya universiteti,*
*“Pedagogika va aniq fanlar” kafedrasi o‘qituvchisi*
*khraziyakhan@gmail.com*

***Annotatsiya.*** *Tezisda bolalik davrida boshdan kechirilgan psixologik jarohatlarning o‘smirlik davrida shaxsiy identiklik shakllanishiga ta’siri masalasi E.Eriksonning psixosotsial rivojlanish nazariyasi hamda J.Marsianing identiklik statuslari modeli asosida nazariy tahlil qilinadi. Jarohatli tajribaning o‘smirlikdagi izlanish va majburiyat jarayonlari bilan aloqadorligi ko‘rib chiqiladi.*

***Kalit so‘zlar:*** *identiklik, identiklik krizisi, identiklik statuslari, psixologik jarohat, o‘smirlik davri, izlanish, diffuz identiklik.*

***Аннотация.*** *В тезисах на основе психосоциальной теории развития Э. Эриксона и модели статусов идентичности Дж. Марсиа теоретически анализируется проблема влияния психологических травм, пережитых в детском возрасте, на формирование личностной идентичности в подростковом возрасте. Рассматривается связь травматического опыта с процессами исследования (поиска) и принятия обязательств в подростковом возрасте.*

***Ключевые слова:*** *идентичность, кризис идентичности, статусы идентичности, психологическая травма, подростковый возраст, исследование, диффузная идентичность.*

***Abstract.*** *This paper provides a theoretical analysis of the impact of psychological trauma experienced in childhood on the formation of personal identity in adolescence, drawing on E. Erikson’s theory of psychosocial development and J. Marcia’s identity status model. The relationship between traumatic experience and the processes of exploration and commitment in adolescence is also examined.*

***Keywords:*** *identity, identity crisis, identity statuses, psychological trauma, adolescence, exploration, identity diffusion.*

**Kirish.** O‘smirlik davri – ontogenezda shaxs shakllanishidagi o‘zlikni anglash, tushunish, hayotiy qadriyatlar hamda ijtimoiy rollarni aniqlash, tanlash jarayonlarining jadallashadigan muhim bosqichlardan biri hisoblanadi. Bu davrda shakllanadigan shaxsiy identiklik inson hayotining keyingi bosqichlaridagi psixologik jihatdan barqarorligi, kasbiy sohada o‘zini topishi va shaxslararo munosabatlarining darajasini belgilab beradi. Shu bilan bir qatorda, zamonaviy tadqiqotlar bolalikdagi psixologik jarohatlar (emotsional, jismoniy, jinsiy zo‘ravonlik va beparvolik) ham o‘smirlik davrida “MEN” ning shakllanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkinligini ko‘rsatmoqda. Ushbu masalani tahlil qilishda E.Erikson hamda uning nazariyasini emperik jihatdan rivojlantirib, boyitgan J.Marsia qarashlari muhim metodologik asos sifatida xizmat qiladi.

**Asosiy qism.** E.Erikson o‘zining psixosotsial rivojlanish nazariyasi orqali shaxs shakllanishini butun hayot davomida uzluksiz davom qiladigan sakkizta davr (go‘daklik 0-1 yosh, ilk bolalik 1-3 yosh, maktabgacha yosh 3-6 yosh, kichik maktab yoshi 6-12 yosh, o‘smirlik va ilk o‘spirinlik 12-18 yosh, ilk yetuklik 20-40 yosh, o‘rta yetuklik 40-65 yosh, keksalik 65 yoshdan keyin) ga ajratgan. Har bir bosqichda shaxs muayyan psixosotsial krizisga uchraydi va bu bosqichni ijobiy yoki salbiy ko‘rinishda bosib o‘tadi. Ahamiyatli jihati shundaki, har bir bosqich natijasi keyingi bosqich uchun zamin hozirlaydi. Tahlil qilayotgan muammomiz yuzasidan o‘smirlik davriga to‘xtaladigan bo‘lsak, bu davrda yuzaga keladigan vaziyat “identiklik va rollar chalkashligi” orasidagi qarama-qarshilikni hal qilishdan iboratdir. E.Erikson nazariyasi bo‘yicha identiklik-shaxsning o‘z-o‘ziga nisbatan vaqt va turli vaziyatlarda uzluksizlik hamda yaxlitlik hissidir. Jamiyat o‘smirga har xil rollarni sinab ko‘rish imkonini beradigan “psixosotsial moratoriy” davrni beradi.

Bolalikdagi psixologik jarohat muammosi nuqtayi nazaridan qaraydigan bo‘lsak, E.Erikson nazariyasining muhim tomoni identiklik krizisi bo‘sh joyda emas, balki oldingi bosqichlarning natijalari asosida hal qilinishidadir. Ya’ni, bolalikda boshdan kechirilgan zo‘ravonlik yoki beparvolik shakllanishning “ishonch va ishonchsizlik”, “avtonomiya va uyat”, “tashabbuskorlik va aybdorlik” kabi bosqichlarida natijaning salbiy yakunlanishiga sabab bo‘lishi mumkin. Natija o‘laroq o‘smir identiklik krizisiga ishonchsizlik, o‘ziga nisbatan bahoning pasayishi va aybdorlik hissi bilan kirib keladi, bu esa rollar chalkashligi ehtimolini oshiradi.

Kanadalik psixolog J.Marsia (1966) E.Erikson g‘oyalarini rivojlantirib, emperik o‘rganish imkonini beruvchi model ishlab chiqdi. J.Marsia nazariyasi identiklik shakllanishini ikki mezon izlanish (krizisni boshdan kechirish) va majburiyat (qadriyat, maqsad va e’tiqodlarga sodiqlik) asosida ko‘rib chiqadi. Ushbu ikki mezon quyidagi to‘rtta identiklik statusini o‘z ichiga oladi:

1. Erishilgan identiklik – o‘smir izlanish davridan o‘tib, mustaqil ravishda barqaror majburiyatlarni qabul qiladi.

2. Moratoriy identiklik – izlanish faol tarzda davom etadi, biroq majburiyatlar hali shakllanmagan.
3. Erta yopilgan (muddatidan oldin qabul qilingan) identiklik – majburiyatlar bor, ammo ular o‘smir izlanishisiz, odatda ota-ona yoki boshqa shaxslardan tayyor holda qabul qilingan.
4. Diffuz (tarqoq) identiklik – izlanish ham majburiyat ham yo‘q; shaxs o‘z yo‘nalishini belgilashga ham harakat qilmaydi.

Kroger, Martinussen va Marsia (2010) tomonidan 124 ta tadqiqot bo‘yicha o‘tkazilgan meta-tahlil natijalariga ko‘ra, bo‘ylama tadqiqotlarda o‘smirlarning taxminan 36 foizi identiklik statusida progressiv o‘zgarishni, 15 foizi regressiv o‘zgarishni namoyon etgan, 49 foizi esa o‘zgarishsiz qolgan. Shuningdek, katta o‘smirlik davrida diffuz va erta yopilgan statuslar ulushi kamayib, moratoriy va erishilgan identiklik ulushi ortib borishi qayd etilgan. Bu ma’lumotlar identiklik statuslarining o‘zgaruvchanligini va tashqi omillar, jumladan, salbiy hayotiy tajribaning ularga ta’sir qilish imkoniyatini ko‘rsatadi.

E.Erikson hamda J.Marsianing nazariyalarini umumlashtirib, quyidagi nazariy taxminlarni ilgari surishimiz mumkin. Birinchidan, bolalikda kechirilgan jarohatlar natijasida shakllangan xavfsizlik hissining yetishmasligi o‘smirni faol izlanishdan cheklaydi, chunki izlanish muayyan darajadagi ichki ishonch va xavfsiz muhitni talab qiladi. Ikkinchidan, bunday o‘smirlarda yoki majburiyatlarning umuman shakllanmasligi (diffuz identiklik), yoki noaniqlik tashvishidan qochish maqsadida tayyor rollarni izlanishsiz qabul qilish (erta yopilgan identiklik) ehtimoli yuqori bo‘lishi mumkin. Penner, Gambin va Sharp (2019) tadqiqotida bolalikdagi zo‘ravonlik va o‘smirlardagi identiklik diffuziyasi o‘rtasidagi bog‘liqlikda refleksiv funksiya (mentalizatsiya) vositachi rol o‘ynashi ko‘rsatilgan. Bu jarohatning identiklikka ta’siri bevosita emas, balki o‘z-o‘zini va boshqalarni anglash qobiliyati orqali amalga oshishini tasdiqlaydi.

**Xulosa.** E.Eriksonning psixosotsial rivojlanish nazariyasi o‘smirlik davridagi identiklik krizisini oldingi bosqichlar natijasi bilan uzviy bog‘liq holda tushuntiradi, J.Marsianing statuslar modeli esa bu jarayonni izlanish va majburiyat mezonlari orqali empirik baholash imkonini beradi. Bolalikda kechirilgan psixologik jarohatlar dastlabki bosqichlarda asosiy ishonch va avtonomiya shakllanishini buzish orqali o‘smirlik davrida diffuz yoki erta yopilgan identiklik shakllanishiga zamin yaratishi mumkin. Shu sababli jarohatli tajribaga ega o‘smirlar bilan ishlashda ularning izlanish faolligini qo‘llab-quvvatlovchi, xavfsiz muhit va refleksiv qobiliyatni rivojlantirishga qaratilgan psixokorreksion dasturlarni ishlab chiqish dolzarb vazifa hisoblanadi.

## Foydalanilgan adabiyotlar

1. Erikson E.H. Childhood and Society. – New York: W.W. Norton, 1950.

2. Erikson E.H. Identity: Youth and Crisis. – New York: W.W. Norton, 1968.

3. Эриксон Э. Идентичность: юность и кризис. – М.: Прогресс, 1996.

4. Marcia J.E. Development and validation of ego-identity status // Journal of Personality and Social Psychology. – 1966. – Vol. 3, № 5. – P. 551–558.

5. Marcia J.E. Identity in adolescence // Handbook of adolescent psychology / Ed. by J. Adelson. – New York: Wiley, 1980. – P. 159–187.

6. Kroger J., Martinussen M., Marcia J.E. Identity status change during adolescence and young adulthood: A meta-analysis // Journal of Adolescence. – 2010. – Vol. 33, № 5. – P. 683–698.

7. Penner F., Gambin M., Sharp C. Childhood maltreatment and identity diffusion among inpatient adolescents: The role of reflective function // Journal of Adolescence. – 2019. – Vol. 76. – P. 65–74.

8. Кон И.С. Психология ранней юности. – М.: Просвещение, 1989.

9. G‘oziyev E.G‘. Ontogenez psixologiyasi. – T.: Noshir, 2010.